

MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI MHXS TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Obidov Rakhmonali Rasulovich

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti, PhD.*

E-mail: mars.or@mail.ru

Annotatsiya: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xalqaro hisob tizimi taraqqiy ettirilishida MHXSlar mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni, jumladan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish va mamlakatlarda investitsion muhitni yaxshilashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham kun sayin xalqaro standartlarni e‘tirof etuvchi mamlakatlar soni oshib bormoqda. Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning birinchi shakli: moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzishning o‘ziga xos jihatlari va ularning bir-biridan farqi ko‘rib chiqilgan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy holat, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, balans, aktivlar, majburiyatlar, foyda, zarar, xususiy kapital.

O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi hisob siyosatida ham muhim o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu jihatdan, milliy standartlarning tuzilishini alohida qayd etish lozim. Xozirgi kunga qadar buxgalteriya hisobining 20 dan ortiq milliy standartlari qabul qilingan va amal qilib kelinmoqda. Moliyaviy holat va undagi o‘zgarishlarni baholashda bu tartib albatta juda ko‘p noaniqliklarga javob topish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4611-son qarori 2020-yil 24-fevralda joriy etildi.[1] Qarorda asosiy maqsad moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalarini mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

Mulkchilik va tarmoq shaklidan qat‘iy nazar, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotlarini milliy standartlardan xalqaro standartlar asosida tuzish muhim hisoblanib, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xorijiy investorlar tomonidan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishi va o‘zining sarmoyasini kiritish bo‘yicha engilliklar tug‘diradi. [2]

Buxgalteriya hisobi ma‘lum bir xo‘jalik yurituvchi subyekt to‘g‘risida moliyaviy ma‘lumotlarni aniqlash, qayta ishlash va moliyaviy hisobot shaklida faoliyat yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga qiziquvchi

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

foydalanuvchilarga ma’lumotni yetkazib berishni amalga oshiradigan axborot tizimdir. Buxgalteriyaning maqsadi – turli foydalanuvchilarni ma’lumotga bo’lgan ehtiyojini, ushbu ma’lumotni olish uchun eng kam sarf-xarajatlardan qondirishdir. O’z-o’zidan ma’lumki qarorlarni qabul qilish uchun axborot tizimdan foydalanish natijasida olinishi mumkin bo’lgan iqtisodiy naflar ushbu tizimga ketgan xarajatlardan ustun bo’lishi lozim. Demak, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari predmeti bo’lib, xalqaro standartlar asosida pul ifodasida aks ettiriladigan xo’jalik mablag’lari, shu mablag’lar manbalari, ularning xo’jalik faoliyati va moliyaviy natijalari bo’lib hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda buxgalterlarning bosh vazifasi korxonaning davlat oldidagi axborot majburiyatlarini (moliyaviy, soliq, bojxona, statistik hisobotlar orqali) hal etishga emas balki birinchi navbatda mulk egasi va menedjerlarning samarali boshqaruvini ta’minlashga qaratilgan vazifalarni hal etib berishga qaratilgan. [3]

Xalqaro moliyaviy hisobotning to’liq komplekti quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- a) Moliyaviy holat to’g’risidagi hisobot (Statement of financial position);
- b) Foyda va zararlar to’g’risidagi hamda boshqa to’plam daromadlar to’g’risidagi hisobot (Statement of profit or loss and other comprehensive income);
- s) Xususiy kapitalning harakati to’g’risidagi hisobot (Statement of changes in equity);
- d) Pul mablag’larining harakati to’g’risidagi hisobot (Statement of Cash Flows);
- e) Hisob siyosati va izohlar, ya’ni hisobotga (tushuntirishlar) ochiqdashlar;
- f) eng oldingi taqqoslanadigan davr boshida moliyaviy holat to’g’risidagi hisobot, agarda korxonada hisob siyosatini retrospektiv qo’llasa yoki o’zining moliyaviy hisobotida moddalarni retrospektiv qayta hisoblashni amalga oshirsa yoki o’zining moliyaviy hisobotida moddalarning reklassifikatsiyasini amalga oshirsa.

Moliyaviy holat to’g’risidagi hisobotga quyidagicha ta’rif beramiz:

“Moliyaviy holat to’g’risidagi hisobot (Buxgalteriya balansi) – bu moliyaviy hisobotning asosiy komponenti bo’lib, hisobot davrining oxiridagi vaqt momentida kompaniyaning moliyaviy holati, ya’ni uning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitalining tasniflangan tarkiblari bo’yicha holatini va hisobot davrida o’zgarishini tavsiflovchi hamda tizimli ravishda asosan tashqi va ichki axborot foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy holatini baholash va unga doir qarorlarni qabul qilish uchun taqdim qilinadigan axborotlarning standartlashgan tizimidir”. [4]

Buxgalteriya balansining moliyaviy holatni aks ettiruvchi hisobot deb ham yuritiladi, chunki bu hisobotning maqsadi kompaniyaning hisobot davrining oxirida ma’lum bir vaqt momentida moliyaviy holatini aks ettiruvchi hisobot hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyekti moliyaviy holat to’g’risidagi hisobotning satrlarida

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

ko‘rsatiladigan qo‘shimcha moddalarini, sarlavhalarni va jamlarni taqdim etishi lozim, qachonki bunday taqdim etish tadbirkorlik subyektining moliyaviy holatini tushunishda o‘rinli bo‘lsa.

Agar tadbirkorlik subyektini o‘zining moliyaviy holati to‘g‘risidagi hisobotida joriy va uzoq muddatli aktivlarni hamda joriy va uzoq muddatli majburiyatlarni alohida turkumlar sifatida aks ettirsa, u muddati uzaytirilgan soliq aktivlarini (majburiyatlarini) joriy aktivlar (majburiyatlar) sifatida tasniflamasligi lozim.

Mazkur Standart tadbirkorlik subyektini tomonidan moddalarni aks ettirish tartibini yoki shaklini belgilamaydi. Shu bilan birga:

(a) moddalar hisobotning alohida satrlarida ko‘rsatiladi, qachonki moddaning yoki o‘xshash moddalar guruhining hajmi, xususiyati yoki vazifasi tadbirkorlik subyektining moliyaviy holatini tushunish uchun ushbu moddalarning alohida taqdim etilishini talab etsa; va

(b) tadbirkorlik subyektining moliyaviy holatini tushunishda o‘rinli bo‘lgan ma‘lumotlarni ta‘minlash uchun, foydalanilgan tavsiflar va moddalarning yoki o‘xshash moddalar guruhining tartibi tadbirkorlik subyektini va uning operatsiyalarining mohiyatidan kelib chiqib o‘zgartirilishi mumkin. Masalan, moliya tashkilotining faoliyatini tushunish uchun o‘rinli bo‘lgan ma‘lumotlarni ta‘minlash maqsadida moliya tashkiloti yuqoridagi tavsiflarni o‘zgartirishi mumkin.

Tadbirkorlik subyektini quyidagilarni baholash asosida qo‘shimcha moddalarni alohida taqdim etish to‘g‘risida qaror qiladi: [5]

- (a) aktivlarning xususiyati va likvidligi;
- (b) tadbirkorlik subyektini ichida aktivlarning vazifasi; va
- (v) majburiyatlarning summasi, xususiyati va muddati.

Aktivlarning turli guruhlari uchun turli baholash asoslarini qo‘llash shuni ko‘zda tutadiki, ular xususiyati yoki vazifasi bo‘yicha farqlanadi va shu tufayli, tadbirkorlik subyektini ularni alohida satrlarda ko‘rsatiladigan moddalar sifatida aks ettiradi. Masalan, asosiy vositalarning turli guruhlari BHXS 16 ga muvofiq tannarx yoki qayta baholangan qiymat bo‘yicha hisobga olinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori
2. A. A. Karimov, A. K. Ibragimov, N. K. Rizaev, N. M. Imamova- moliyaviy hisobot standardari / dars-T.: "Moliya", 2021-310 B.
3. Norbekov D.E. Ochilov I.K. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” O‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent:,2019. – 416 b.
4. Ismanov, I. N., & Axmadaliev, B. (2021). Factors Influencing The Formation Of International Budget Accounting Systems. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(09), 21-30.
5. С. Ташназаров. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари:

Олий ўқув юртлари магистратура мутахассисликлари учун дарслик. – Тошкент: ,2018. – 555 б.

6. Raximov M. Y. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Toshkent Moliya instituti. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013.392 b.

7. Raximov M.Y. Moliyaviy tahlil-2 (o‘quv qo‘llanma) T.:TMI. 2003 y. 166 b.

8. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlarini. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 4 (2024), 754–759

9. Чориев И.Х. (2023). Молиявий ҳисоботлардаги хатоликларни аниқлашда таҳлилий амаллардан фойдаланишнинг услубий жиҳатлари. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 1, February 2023.

10. Қличев, Б. (2022). КРІ ТИЗИМИ АСОСИДА МОДДИЙ РАҒБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от
<https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1343>

11. Klichev Bakhtiyar Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>

12. Чориев И.Х. (2023). Молиявий инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 2, April 2023.

13. U.K.Yakubov, G.S.Maxmudova. (2022). Biznes tahlil: Operatsion tahlil-1,2. (Darslik). –T.: “Nihol print”, 205 b.

14. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>

15. Косимович, Я. У. (2024). Ташқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини таҳлили. *World scientific research journal*, 26(2), 199-205.

16. Tulaev, M. (2024). Moliyaviy hisobot konsepsiyalari. *Nordic_Press*, 2(0002).

17. Абдуллаев, А. Б. (2019). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА И АНАЛИЗА НАЛОГОВ. In *БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ: ДОСТИЖЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ XXI ВЕКА* (pp. 10-17).

18. Kasimovich, Y. U. (2021). Developing A Model On The Basis Of A System Of Indicators Determining The Efficiency Of Foreign Trade Activities. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).

19. ҚЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив научных*

исследований, 2(1).

извлечено

от

<https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>

20. [Rozmatova Umida Yuldashevna. \(2024\). NOMODDIY AKTIVLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. World Scientific Research Journal, 26\(3\), 177–184. Retrieved from](#)

<http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3261>

21. Кличев, Б. (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариши ҳажми таҳлилини такомиллаштириши масалалари. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 170–173. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp170-173>

22. [Tulaev, M. \(2024\). T BUXGALTERIYA HISOBINING SCHYOTLARI VA ULARNING MOHIYATI. Nordic Press, 2\(0002\).](#)

23. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Konferensiya to'plami. Termiz, O'zbekiston. 15-iyun 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>

24. Қличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариши ҳажми таҳлилини такомиллаштириши масалалари. Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>